

"NKMK jamg'armasi"  
davlat muassasasining  
2021-yil 11 08 dagi  
62- sonli buyrug'iga 3-ilova

## **"NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI JAMG'ARMASI" DAVLAT MUASSASASI**

### **MANFAATLAR TO'QNASHUVI NIZOMI**

Navoiy-2021

## UMUMIY SO‘ZLAR

**Nizom** – “Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamg‘armasi” davlat muassasasi Manfaatlar to‘qnashuvi Nizomi.

**Muassasa** – “Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamg‘armasi” davlat muassasasi (keyinchalik – Jamg‘arma deb yuritiladi).

**Xodimlar** – Jamg‘arma bilan mehnat munosabatida bo‘lgan shaxslar, shu jumladan Jamg‘arma rahbariyati.

**Oila a‘zolar va yaqin qarindosh** – turmush o‘rtog‘i, bolalari (voyaga yetgan va voyaga etmaganlar), ota-onalar, aka-uka va opa-singillar.

**Manfaatlar to‘qnashuvi** – bu xodimning shaxsiy manfaatlari (to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita) uning xizmat (mehnat) vazifalarini to‘g‘ri va xolis bajarishiga ta‘sir ko‘rsatishi yoki ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan holat.

**Shaxsiy qiziqish** – pul yoki boshqa mulk shaklida daromad olish imkoniyati, shu jumladan mulkiy huquqlar, shaxsiy xizmatlar, bajarilgan ish natijalari yoki Jamg‘armaning xodimi va (yoki) yaqin qarindoshlari yoki u bilan bog‘liq (ota-onalar, turmush o‘rtoqlar, farzandlar, aka-ukalar, opa-singillar, shuningek aka-ukalar, opa-singillar, ota-onalar, turmush o‘rtog‘ining farzandlari va farzandlarining turmush o‘rtoqlari), Jamg‘arma xodimi bo‘lgan fuqarolar yoki tashkilotlar va (yoki) u bilan shaxsiy, korporativ yoki yaqin munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lgan holatlar.

**Kadrlar komissiyasi** – Jamg‘arma Bosh direktori ijro etuvchi organ bo‘lib, uning vakolatiga Jamg‘armaning joriy faoliyatini boshqarish masalalari bo‘yicha qarorlar qabul qilish va Jamg‘arma Ustavida belgilangan vazifalarni amalga oshirish kiradi.

**Kontragent** – Jamg‘arma bilan mehnat munosabatlaridan tashqari shartnoma munosabatlariga kiradigan har qanday mahalliy yoki xorijiy yuridik yoki jismoniy shaxs.

**Ishonch telefoni** – Jamg‘arma xodimlari va uchinchi shaxslar (kontragentlar, sheriklar, Hududiy boshqarma xodimlari va boshqalar) bilan aloqa o‘rnatishning maxsus kanali bo‘lib, u orqali Jamg‘arma xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiya huquqbuzarliklariga qarshi kurashish, ular tomonidan Jamg‘arma faoliyati bo‘yicha ma‘lumotlar olish kanali.

**Biznes-jarayon** – bu Jamg‘arma faoliyatini takomillashtirish uchun muhim bo‘lgan natijani yaratishga qaratilgan vazifalar (operatsiyalar, ishlar).

**Korrupsiya va firibgarlikka qarshi Jamg‘arma ishchi guruhi** – korrupsiyaga qarshi qarorlarni ko‘rib chiqish, tahlil qilish va kelishish maqsadida Jamg‘arma rahbariyati – Bosh direktorining buyrug‘i bilan firibgarlik va korrupsiyaga qarshi tuzilgan Jamg‘armaning maslahat organi.

**Shaxsiy ustunlik** – Jamg‘arma xodimining, u bilan yaqin munosabatda bo‘lgan yoki mol-mulkka ega bo‘lgan shaxslarning nomoddiy manfaatlar va nomoddiy afzalliklarga ega bo‘lish manfaati.

**Moddiy foyda** – bu O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga muvofiq daromad sifatida baholanishi mumkin bo‘lgan pul yoki buyum shaklidagi iqtisodiy foyda.

## **1. KIRISH**

1.1. Ushbu Nizom Jamg'armaning firibgarlik va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi asosiy hujjati bo'lib, manfaatlar to'qnashuvi sohasidagi Jamg'arma faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan.

1.2. Jamg'arma faoliyatiga ushbu Nizom qoidalarini kiritish biznes-jarayonlarni amalga oshirish bilan bog'liq manfaatlar to'qnashuvi sohasida korrupsiya xavfini kamaytirishga yordam beradi.

## **2. NIZOMNI TASDIQLASH VA O'ZGARTIRISH TARTIBI**

2.1. Jamg'arma rahbariyati ushbu Nizomni tasdiqlaydi va zarurat tug'ilsa, uning qoidalarini yangilaydi.

## **3. UMUMIY QOIDALAR**

3.1. Manfaatlar to'qnashuvi Nizomi – Jamg'armaning ichki normativ hujjati bo'lib, unga muvofiq manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, namoyon qilish va hal qilishga qaratilgan.

3.2. Manfaatlar to'qnashuvini hal qilish tartibi Jamg'armada manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va hal qilish tartibi to'g'risidagi Nizom bilan belgilanadi.

3.3. Ushbu Nizom talablari Jamg'armaning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi shart.

3.4. Jamg'arma kontragenti, agar uning vazifalari shartnomada aniq ko'rsatilgan bo'lsa, Nizom qoidalariga amal qilishi shart.

## **4. NIZOM MAQSADI**

4.1. Amaldagi qonunchilik talablarini umumlashtirish asosida, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya qilish uchun Jamg'arma va uning xodimlari faoliyatining asosiy tamoyil va talablarini birlashtiradi.

4.2. Jamg'arma xodimlari o'tasida Jamg'arma manfaatlarini to'qnashuvining yo'l qo'yilmasligi bo'yicha umumiyoq sog'lom dunyoqarashni shakllantiradi.

4.3. Jamg'arma xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi ta'siridan zarar ko'rishi xavfini kamaytiradi.

4.4. Jamg'armada manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, oshkor qilish va uni bartaraf qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qabul qilishning asosiy yo'nalishlarini umumlashtiradi.

## **5. NIZOM TAMOYILLARI**

5.1. Jamg'arma manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishda quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

- hozirgi va kelgusida manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilish majburiyati;
- har bir manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganda va uni hal qilishda Jamg'arma uchun uning obro'si xavfini individual ko'rib chiqish va baholash;
- manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni hal qilish jarayonida uni oshkor qilish jarayonining maxfiyligi;
- manfaatlar to'qnashuvini hal qilishda Jamg'arma va uning xodimi manfaatlari muvozanatiga rioya qilish;
- xodim tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazish munosabati bilan xodimni javobgarlikka tortishdan himoya qilish, u xodim tomonidan darhol oshkor qilinishi va Jamg'arma tomonidan hal qilinganligi.

## **6. NIZOMNING ASOSIY FAOLIYATI VA TALABLARI**

6.1. Jamg'arma xodimlari Jamg'armaning qonuniy manfaatlari uchun qayg'urishi hamda yuzaga keladigan manfaatlar to'qnashuvining oldini olishlari shart.

6.2. Jamg'arma xodimlarning shaxsiy nuqtai nazaridan kelib chiqib, ularning uchinchi shaxslar manfaatlarida emas, balki faqat Jamg'arma manfaatlardan kelib chiqib, yetkazib beruvchilar, mijozlar, pudratchilar va Jamg'arma bilan ish olib boradigan boshqa shaxslar bilan ish olib borishini ta'minlaydi.

## **7. MANFAATLAR TO'QNASHUVI TURLARI**

7.1. Manfaatlar to'qnashuviga quyidagilar kiradi:

- xodim o'z xizmat vazifalarini bajarishda olingan insayder yoki boshqa maxfiy ma'lumotlardan foydalangan holda moliyaviy vositalar, valyuta yoki tovarlar bilan operatsiyalarni bajarishi;
- xodimning shaxsiy manfaatlarini ko'zlab o'z xizmat vazifalari bo'lmish ijro va nazorat funksiyalaridan foydalanishi;
- xodim shaxsiy manfaatlarini olish uchun o'z mehnat vazifalarini bajarish uchun zarur bo'limgan maxfiy ma'lumotlardan foydalanishi;
- xodim shaxsiy manfaatlarini ko'zlab, xizmat vazifalarini suiste'mol qilishi;
- bir xodim tomonidan o'z vazifalarini boshqa xodim tomonidan o'z vaqtida va to'g'ri bajarilishiga to'sqinlik qilish, shu jumladan shaxsiy daromad olish maqsadida;

- xodimning (uning yaqin qarindoshlari) Jamg'arma kontragentlari faoliyatida ishtiroki, bu xodimning shaxsiy manfaatlarini qo'liga kiritish uchun bir kontragentning manfaatlarini boshqasining manfaatlariga ziyon yetkazishini nazarda tutadi yoki xodim shaxsiy manfaatlarini olish uchun kontragent manfaatlariga ziyon yetkazish uchun o'z manfaatlarini ustun qo'yishi;

7.2. Nizomning 7.1-bandida keltirilgan manfaatlar to'qnashuvi misollari (turlari) Jamg'arma faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan boshqa turdag'i manfaatlar to'qnashuvi holatlarining vujudga kelishini cheklamaydi. Bunday holatlarda, agar mas'ul shaxslar ushbu ro'yxatda mavjud bo'limgan, biroq "manfaatlar to'qnashuvi" ta'rifiga mos keladigan holatlarni aniqlagan taqdirda:

- tegishli xodimga qoidabuzarlik to'g'risida xabarnoma yuborib ogohlantiriladi (qat'iy choralar qo'llamagan holda);

- aniqlangan holatlarni inobatga olib, ushbu Nizomga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi.

## **8. MANFAATLAR TO'QNASHUVINI OLDINI OLISH VA DOIMIY CHORALAR**

8.1. Manfaatlar to'qnashuvi holatlarining oldini olish va tartibga solish maqsadida Jamg'arma tomonidan quyidagi choralar ko'rildi:

8.1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari va boshqa hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Ta'sischi va Vasiylik Kengashining qaror, buyruq va farmoyishlari, Jamg'arma Ustavi va ichki lokal normativ hujjatlar (aktlar) talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

8.1.2. Jamg'arma Bosh direktori va o'rinnbosarlari, Hududiy boshqarma direktorlari va o'rinnbosarlari, tarkibiy bo'linmalar rahbarlari va o'rinnbosarlari va boshqa mansabdor shaxs va xodimlar tomonidan 8.1.1-bandagi rioya qilinishi va amalga oshirilishi shart bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar (aktlar) talablarining to'g'ri bajarilishini nazorat qiladi.

8.1.3. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda Jamg'arma Ustavidagi belgilangan vazifalardan kelib chiqib, manfaatli bitim, shartnoma va kelishuvlarning rasmiylashtirish jarayonini nazorat qilgan holda monitoring qiladi.

8.1.4. Jamg'arma xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarishda olgan insayder va boshqa maxfiy ma'lumotlarga ega bo'lish huquqlarini taqsimlaydi.

8.1.5. Kontragentlar va Jamg'arma manfaatlariga qat'iy rioya etgan holda insayder va maxfiy ma'lumotlardan qonuniy foydalanishni ta'minlaydi.

8.1.6. Jamg'arma xodimlari tomonidan moliyaviy vositalar, valyuta yoki tovarlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishda maxfiy ma'lumotlardan foydalanishni ta'qiqlaydi.

8.1.7. Jamg'arma xodimlarining xizmat vazifalarini amalga oshirishda maxfiy ma'lumotlarga kirishini nazorat qilish va monitoringini ta'minlaydi.

8.1.8. Jamg'arma faoliyatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va hal qilish maqsadida belgilangan tartibda manfaatlarning (potentsial) to'qnashuvi to'g'risida vakolatli idora va tashkilotlarni xabardor qiladi.

8.1.9. Jamg'arma Ustavi, Ish rejasи, Hududiy boshqarmalar Nizomi, Jamg'armaning ichki mehnat qoidalarini tartibga soluvchi hujjatlarida Jamg'arma tarkibiy bo'linmalari va ishchi-xodimlarining mehnat faoliyatiga mos kelmaydigan vazifalar yo'qligini nazorat qiladi.

8.1.10. Jamg'armaning avtomatlashtirilgan tizimlari va ofislarida xizmat vazifalarini bajarishda ishchi-xodimlarning foydalanish huquqlarini belgilaydi va ulardan talab darajasida amalga oshirilishini nazorat qiladi.

8.1.11. Jamg'arma xodimlari (shu jumladan anonim ravishda), Jamg'arma manfaatlariga to'g'ri kelmaydigan, amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga (aktlarga) zid, lavozimini suiste'mol qilgan, kasbiy etika me'yorlariga riox qilmaslik va manfaatlar to'qnashuvi holatlariga guvoh bo'lganida, Jamg'arma "Ishonch telefoni" orqali tegishli mutasaddi rahbar xodimlarni xabardor qilishi kerak.

8.1.12. Jamg'arma xodimlari, rahbar yoki mulkdor bo'lgan yuridik shaxslarning (tashkilot, idora yoki korxona) tovarlarini (ishlarini, xizmatlarini) Jamg'arma tomonidan sotib olinishida ishtirok etishida o'z xizmat mavqeい va lavozimidan foydalanishini taqiqlaydi.

8.1.13. Jamg'arma xodimlarining kasbiy etika tamoyillariga riox qilishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

8.1.14. Jamg'arma Bosh direktori tomonidan ko'rib chiqish uchun Jamg'armaning tegishli mutasaddi rahbar hodimlari aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va tartibga solish bo'yicha ko'rigan choralar to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlaydi.

## **9. MANFAATLAR TO'QNASHUVI BOSHQURUVI BOSQICHLARI**

9.1. Jamg'armada manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida quyidagi choralar ko'riliishi lozim:

- Jamg'arma xodimlarini ishga qabul qilish yoki xizmat vazifalariga o'zgartirish kiritigan taqdirda, ularni rahbarlik yoki tegishli funksiyalarni bajaradigan shaxsga bevosita aloqador bo'lgan lavozimlarga tayinlanishdan saqlanish;

- Jamg'arma va kontragent o'ttasida xarid qilishning shartnoma rasmiylashtirish tartib-tamoyillari bosqichlarida, ularning Ta'sischilarini va

menejerlarining Jamg'arma xodimlari, ularning oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlari bilan bog'liqlik belgilarini o'rganish;

- Jamg'arma xodimlari, qolaversa, Jamg'armaning moddiy foyda ko'rinishida qo'shimcha daromad oluvchi alohida xodimlari va mansabdar shaxslarining o'z xizmat mavqeidan noqonuniy hamda malakasiz faoliyatlarini aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar va xizmat tekshiruvlari o'tkazish;

- ishga qabul qilishda har bir mansabdar shaxs va ishchi-xodimning ushbu Nizom bilan tanishishini ta'minlash;

- Jamg'arma mansabdar shaxslari va xodimlariga ushbu Nizomning mazmun-mohiyatini doimiy ravishda tushuntirib borish;

- tijorat sirlarini himoya qilishni ta'minlash;

- ichki nazoratni amalga oshirilishini ta'minlash;

9.2. Agar o'tkazilgan xizmat tekshiruvi Jamg'arma huquq va manfaatlарining buzilganligi aniqlasa, Jamg'arma Bosh direktori manfaatlар to'qnashuvi oqibatlarini oldini olishga qaratilgan qat'iy choralarни ko'radi.

9.3. Manfaatlар to'qnashuvining oldini olish uchun Jamg'armaning har bir xodimi quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim:

- Nizom qoidalariга to'liq rioxha qilishi;

- manfaatlар to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar va qarorlar qabul qilishdan tiyilishi;

- manfaatlар to'qnashuvining oldini olish va yuzaga kelgan manfaatlар to'qnashuvi holatlarini hal qilish uchun Jamg'armaning tegishli lokal normativ hujjalarda (aktlarida) nazarda tutilgan choralarни ko'rish;

- agar manfaatlар to'qnashuviga olib keladigan holatlar bo'lsa, boshqa tashkilotlarda to'liq bo'limgan ish faoliyatidan voz kechish, o'qitish, ijodiy va ilmiy faoliyatlar bundan mustasno;

- Jamg'arma bilan shartnomaviy aloqasi bo'lgan yoki ishbilarmonlik munosabatlarini izlayotgan har qanday jismoniy yoki yuridik shaxsga hech qanday shaxsiy kredit yoki biron-bir xizmatga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita murojaat qilmaslik. (biroq, bunday holat kredit berish yoki bunday xizmatlar asosiy faoliyatining bir turi sifatida bo'lgan sub'ektlarga tegishli emas);

- Jamg'armani o'z vaqtida xabardor qilish (korruptsiya holatiga moyilligi yuqori bo'lgan lavozimlarda faoliyat yurituvchi hamda mehnat shartnomasida bunday majburiyatlar yuklangan Jamg'arma xodimlariga tegishli);

- xodimning daromad manbalari va ulardagи keyingi o'zgarishlari to'g'risida;

- xodimning o'zi yoki unga yaqin shaxs(lar)ning aloqadorligi (ulushlarga, aktsiyalarga ega) bo'lgan yuridik shaxslar to'g'risida;

- xodimga ma'lum bo'lgan, Jamg'arma, Hududiy boshqarma va tarkibiy bo'linmalarda manfaatlар to'qnashuvi belgilari mavjud bo'lgan bitimlar to'g'risida;

- manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan sharoitlar to'g'risida zudlik bilan Jamg'arma rahbariyatini va (yoki) mutasaddi mansabdar shaxsni xabardor qilish;

- Jamg'arma Bosh direktoriga, o'z xizmat vazifalarini mustaqil va vijdonan bajarishga to'sqinlik qiladigan holatlar yuzaga kelganligi to'g'risida xabar berish;

- rejimga rioya qilgan holda insayder va maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish kabi vazifalarni bajarishi shart.

9.4. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida, xizmat vazifalarini taqsimlash va Jamg'arma nomidan xodimlariga shartnomaviy hujjatlarni rasmiylashtirish huquqini berishda, manfaatlar to'qnashuvi paydo bo'lishiga sabab bo'ladigan omillarni (shartlarni) istisno qiladigan tarzda amalga oshirish;

9.5. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida Jamg'arma Bosh direktori, uning o'rinnbosarlari va mansabdar shaxslar (Boshqaruv a'zolari) quyidagilarga javobgar va mas'ul hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlar, Jamg'arma Ustavi va lokal normativ hujjatlar (aktlar) talablariga rioya qilish;

- biznes va kasbiy etika normalariga rioya qilish;

- Jamg'arma moliyaviy ahvolining yomonlashuvi, shuningdek, boshqaruv samaradorligining pasayishiga olib keluvchi, tavakkalchiliklarni anglatuvchi qarorlar qabul qilishdan tiyilish;

- oshkor etilishi zarur bo'lgan va manfaatdor tomonlar qabul qilgan qarorlarga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan ishonchli ma'lumotlarni (shu jumladan buxgalteriya hisobi va boshqa e'lon qilingan hisobotlarni) o'z vaqtida oshkor etilishini ta'minlash;

- ichki nazorat tizimining samarali ishlashini ta'minlash;

- xizmat, tijorat va davlat sirlari, shuningdek, Jamg'arma mansabdar shaxslari va xodimlarining shaxsiy ma'lumotlarini saqlanishini ta'minlash.

9.6. Manfaatlar to'qnashuvini aniqlashda, Jamg'arma barcha kiruvchi yozishmalar, lokal normativ hujjatlar hamda Jamg'arma Ishonch telefoni orqali kelib tushgan xabarlarni o'rganadi.

9.7. Manfaatlar to'qnashuvi xizmat tekshiruvi, nazorat tadbirlari davomida aniqlangan taqdirda, Jamg'armaning mutasaddi xodimlari tomonidan zudlik bilan Jamg'arma Bosh direktori, Korrupsiya va firibgarlikka qarshi Jamg'arma ishchi guruhi hamda Kadrlar komissiyasiga xabar beriladi.

9.8. Jamg'armaning qonuniy manfaatlarini hisobga olgan holda, sudgacha bo'lgan jarayonda, yuzaga kelgan manfaatlar to'qnashuvi holatlarini bartaraf etishning barcha mavjud huquqiy usullaridan foydalangan holda choralar ko'rildi.

9.9. Jamg'arma Bosh direktori, manfaatlar to'qnashuvi mavjud g'ayriqonuniy xatti-harakatlar to'g'risida ma'lumot olgan taqdirda, ushbu manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi holatiga ishonch hosil qilgan holda zudlik

bilan bunday holatning sabablarni aniqlash va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish uchun mas'ul shaxsni (yoki ishchi guruhni) tayinlaydi.

9.10. Manfaatlar to'qnashuvini hal qilish va uning sabablarini aniqlash uchun tayinlangan mas'ul shaxs (yoki ishchi guruh) uni bartaraf etish bo'yicha takliflar tayyorlaydi.

9.11. Aniqlangan manfaatlar to'qnashuvini Jamg'arma Hududiy boshqarmasi yoki tegishli tarkibiy bo'linmasi darajasida bartaraf etishning iloji bo'lmasa, Hududiy boshqarma direktori ushbu manfaatlar to'qnashuvi, uning kelib chiqish sabablari, hal etish choralar to'g'risida Jamg'arma Bosh direktoriga yozma ravishda xabar berishi shart. O'z navbatida, Jamg'arma Bosh direktori bunday holatning sabablarini aniqlash va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish uchun Korrupsiya va firibgarlikka qarshi Jamg'arma ishchi guruh yoki Kadrlar komissiyasini jalb qiladi.

9.12. Agar sudgacha bo'lgan jarayonda, yuzaga kelgan manfaatlar to'qnashuvini hal qilishning iloji bo'lmasa, Nizo taraflari O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda tegishli sudga murojaat qilishadi.

9.13. Jamg'arma tomonidan Nizolashuvchi tomonlarga manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish bo'yicha ko'rilgan choralar to'g'risidagi ma'lumotlar beriladi.